

Kripto-aktivlarni saqlash, qabul qilish va Jo'natish bo'yicha

xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzish haqida

OFERTA SHARTNOMASI

(jismoniy shaxslar uchun)

Toshkent sh.

16.12.2025 y.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «CITY PAY GATE» Qo'shma korxonasi (STIR 311606433), Ustav asosida va O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar Milliy agentligi tomonidan 24.02.2025 yilda berilgan CD № 0004-sonli kripto-depozitariy litsenziysi va CS № 0012-sonli kripto-do'kon litsenziysi asosida faoliyat yuritib, (bundan buyon matnda – «**CityPay**», «**Ijrochi**») deb nomlanadi, ushbu bilan huquqiy layoqatga ega jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda – «**Foydalanuvchi**») deb nomlanadi, rasmiy taklifni (ommaviy oferta shartnomasini) yo'llaydi va unda quyida keltirilgan shartlar asosida shartnomasi tuzishni (bundan buyon matnda – «**Shartnomasi**», «**Oferta**») taklif etadi.

Ushbu Oferta shartnomasining predmeti — CityPay tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kripto-aktivlarni veb-interfeys orqali <https://citypay.uz/> saytidagi shaxsiy kabinetda saqlash (kustodial saqlash), qabul qilish (kiritish) va yuborish (chiqarish/ko'chirish) xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

CityPay O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda kripto-aktivlar faoliyatni tartibga soluvchi vakolatli organlar hujjatlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi. Xizmatlarga kirish <https://citypay.uz/> veb-sayti orqali taqdim etiladi. Aksept tartibi va vaqt ushbu Oferta shartnomasining 1-bo'limida belgilangan bo'lib, veb-interfeys orqali aniq rozilik ifodasini talab qiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu oferta shartnomasi huquqiy layoqatga ega jismoniy shaxslarga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi mazmunidagi shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga oladi.

1.2. Oferta shartnomasining amaldagi tahriri <https://citypay.uz/> saytiga (bundan buyon – «**Sayt**») joylashtiriladi.

1.3. Aksept tartibi va vaqt. Shartnomasi faqatgina Foydalanuvchi Saytning veb-interfeysida chek-boksniga belgilab yoki «Ofertaning shartlarini qabul qilaman» tugmasini bosgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Har qanday konklyudent xatti-harakatlar aksept deb hisoblanmaydi. Aksept faktining ro'yxatga olinishi sana/vaqt (UTC+5 vaqt mintaqasi, Toshkent vaqt), IP-manzil va sessiya/brauzer identifikatori bilan saqlanadi. Qabul qilinmaguncha, tranzaktsiyalarni amalga oshirish funksiyasiga kirish mumkin emas.

1.4. Aksept Foydalanuvchining ushbu Oferta shartnomasining shartlari, Maxfiylik siyosati, Shartlar va qoidalar, Cookie fayllaridan foydalanish Siyosati, shuningdek CityPayning Saytda joylashtirilgan qo'llaniladigan texnik va operatsion reglamentlariga to'liq va so'zsiz roziligidini bildiradi.

1.5. Xizmat hajmi. Ushbu Oferta shartnomasiga muvofiq CityPay qo'llab-quvvatlanadigan kripto-aktivlarni Saytdagi Shaxsiy kabinet orqali kustodial saqlash, qabul qilish (kiritish) va yuborish (chiqarish/ko'chirish) xizmatlarini taqdim etadi.

1.6. Kirish usuli. Xizmatlarga kirish Sayt orqali taqdim etiladi.

1.7. Yoshi va huquqiy maqomi. Xizmatlar 18 yoshga to'lgan, to'liq huquqiy layoqatga ega va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda vakolatli organlar hujjatlari (xususan, shaxsni identifikasiya qilish, jinoiy

faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar, shuningdek sanksiyalar bo'yicha komplayensni o'z ichiga oladi) talablariga javob beradigan jismoniy shaxslarga taqdim etiladi.

1.8. Kommunikatsiyalar va xabarnomalar. Foydalanuvchi bilan o'zaro aloqalar faqatgina Saytdagi Shaxsiy kabinet orqali (holatlar va operatsiyalar tarixining ko'rsatilishi, axborot xabarları) amalga oshiriladi. Oferta shartnomasining yangi tahriri joylashtirilganda, u haqida ma'lumot Foydalanuvchiga Shaxsiy kabinetga keyingi kirishida push-xabarnoma ko'rinishida taqdim etiladi. Push-xabarnomaning aks ettilishi tegishli xabarnoma berilganligi, tanishib chiqilganligi va Foydalanuvchi tomonidan Oferta shartnomasining yangi tahrirdagi aksepti tasdiqlanganligi hisoblanadi.

1.9. Elektron hujjatlar. Shaxsiy kabinetdagi yozuvlar (operatsiyalar tarixi va holatlari jumlasiga kiradi) elektron hujjatlarning yuridik kuchiga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan doiralarda Tomonlar o'rtasida amalga oshirilgan harakatlar va xabar almashuvlarning tegishli isboti sifatida tan olinadi.

1.10. Shaxsiy ma'lumotlar va lokalizatsiya. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va CityPay Maxfiylik siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Taqdim etilgan ma'lumotlarni saqlash O'zbekiston Respublikasi hududidagi serverlarda ta'minlanadi. Saqlash muddati — Foydalanuvchi bilan munosabatlar tugatilgan kundan boshlab yoki qonun bilan belgilangan boshqa muddatdan boshlab kamida 5 (besh) yil.

1.11. Blokcheyn-texnologiyalarining xususiyatlari. Taqqoslangan reyestrlarda (blokcheyn tarmoqlarida) amalga oshiriladigan operatsiyalar bekor qilib bo'lmaslik/ortga qaytarilmaslik xususiyatiga ega bo'lib, tarmoq tasdiqlariga bog'liq bo'ladi. Qo'shimcha shartlar va xavf-xatarlar 4, 5 va 9-bo'limga, shuningdek 1-llovada ohib berilgan.

1.12. Hujjatlarning ustuvorligi. Oferta shartnomasining shartlari Saytdagi har qanday axborot/marketing mazmunidagi e'lonlardan ustun turadi.

1.13. Oferta shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish. Ijrochi Saytda yangi tahrirni joylashtirish orqali Oferta shartnomasiga o'zgartirish kiritishga haqlidir. Yangi tahrir joylashtirilgan paytdan boshlab (agar boshqa sana ko'rsatilmagan bo'lsa) qo'llanadi. Foydalanuvchi Shaxsiy kabinetga navbatdagi kirishda yangi tahrir haqida push-xabarnoma ko'rinishida ma'lumot oladi; push-xabarnomaning aks ettilgan vaqtı tizimda qayd etiladi (sana/ UTC+5 bo'yicha vaqtı, IP-manzil, sessiya/brauzer identifikatori) va bu holat yangi tahrirning aksepti – shartnomma shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilinishi hamda tanishib chiqilganligini tasdiqlash hisoblanadi, Foydalanuvchi tomonidan qo'shimcha harakatlar talab qilinmaydi.

1.14. Operatsiyalarni qayta ishslash muddatlari. Kripto-aktivlarni qabul qilish, yuborish va tizim ichida o'tkazish bo'yicha har bir operatsiya 24 (yigirma to'rt) soat ichida qayta ishlanadi.

2. ATAMALAR

Ushbu Oferta shartnomasida bosh harf bilan qo'llanilgan atamalar kontekstdan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, quyida belgilangan mazmunga ega.

2.1. CityPay — MChJ shaklidagi «CITY PAY GATE» QK (STIR 311606433), Ustav asosida va O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar Milliy agentligi tomonidan 24.02.2025 yilda berilgan CD № 0004-sonli kripto-depozitariy litsenziyasi va CS № 0012-sonli kripto-do'kon litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi hamda ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha Xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

2.2. Sayt — CityPay'ning rasmiy veb-sayti <https://citypay.uz/>, shu jumladan Shaxsiy kabinetning himoyalangan veb-interfeysi.

2.3. Shaxsiy kabinet — Foydalanuvchi avtorizatsiyadan o'tgandan keyin foydalanadigan Sayt bo'limi bo'lib, u orqali Xizmatlardan foydalaniladi va Topshiriqlar shakllantiriladi, shuningdek operatsiyalar tarixi va holatlari aks ettililadi.

2.4. Foydalanuvchi — ro'yxatdan / identifikatsiyadan o'tgan va ushbu Oferta shartnomasini qabul qilgan huquqiy layoqatga ega jismoniy shaxs.

2.5. Kripto-aktiv — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi mazmuniga ko'ra qiymatga ega va egasi bo'lgan, taqsimlangan reyestrda (blokcheynda) raqamli yozuvlar shaklida ifodalanadigan mulkiy huquq. Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlar va tarmoqlar 2-llovada ko'rsatilgan. Anonim (privacy) tokenlar qo'llab-quvvatlanmaydi.

2.6. Qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqlar — CityPay texnik jihatdan tegishli Kripto-aktivlarni kiritish/chiqarish/ko'chirishni ta'minlaydigan blokcheyn tarmoqlari. Tarmoqlar ro'yxati 2-llovada keltiriladi va xavfsizlik hamda komplaens asoslari bo'yicha o'zgartirilishi mumkin.

2.7. CityPayning kastodial kripto-hamyoni — CityPay tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlarni saqlash uchun dasturiy-texnik infratuzilma;

2.8. Manzil (hamyon manzili) — tegishli tarmoqda Kripto-aktivni qabul qilish/yuborish uchun ishlatalidigan noyob identifikator (ommaviy kalit/manzil).

2.9. Tranzaksiya — Shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladigan qabul qilish (kiritish) yoki yuborish (chiqarish/ko'chirish) Kripto-aktiv operatsiyasi.

2.10. Tizim ichidagi o'tkazma — CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatiladigan hamyonlar o'rtasida Kripto-aktiv yuborilishi (off-chain/ichki kliring). Tizim ichidagi o'tkazmalar bo'yicha CityPay Komissiyasi undirilmaydi va Tarmoq yig'imi qo'llanilmaydi.

2.11. Tashqi o'tkazma — CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatilmaydigan tashqi manzilga (on-chain) Kripto-aktiv yuborilishi. Tashqi o'tkazmalarga tegishli tarmoq qoidalari bo'yicha Tarmoq yig'imi qo'llaniladi.

2.12. Topshiriq — Foydalanuvchining Tranzaksiyani amalga oshirishga oid elektron shakldagi irodaviy ifodasi bo'lib, interfeysda aks ettililgan shartlarga (aktiv/tarmoq, hajm, qabul qilib oluvchi manzili, kutilayotgan Tarmoq yig'imi va boshqalar) asoslanadi.

2.13. Tarmoq yig'imi (network fee) — tegishli tarmoq validatorlari/maynerlariga tranzaksiyani blokcheynga kiritish uchun to'lanadigan to'lov, yig'im miqdori tarmoq qoidalari bilan belgilanadi va CityPay tomonidan belgilab qo'yilmaydi. Tashqi o'tkazma amalga oshirilganda CityPay Foydalanuvchidan Tarmoq yig'imi summasini ushlab qoladi va uni tarmoqqa to'laydi.

2.14. Identifikatsiya (KYC) — Foydalanuvchining shaxsini aniqlash va taqdim etilgan ma'lumotlar/hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda CityPay ichki qoidalarida nazarda tutilgan hajmda tekshirish.

2.15. AML/CFT/FP-nazorat — jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash (Anti-Money Laundering, AML), terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash (Counter-Financing of Terrorism, CFT) va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash (Financing of Proliferation, FP) choralar, shu jumladan sanksiyaviy skrining va operatsiyalar monitoringini o'z ichiga oladi.

2.16. Avtorizatsiya vositalari — Shaxsiy kabinetga kirish va Topshiriqlarni tasdiqlash uchun foydalaniladigan login, parol va boshqa mexanizmlar.

2.17. Oferta shartnomasi haqida push-xabarnoma — Oferta shartnomasining yangi tahriri joylashtirilganligi haqida Shaxsiy kabinet ichida avtomatik ravishda yuboriladigan xabar. Ushbu push-xabarnomaning aks ettirilishi tegishli tarzda xabardor etish, tanishib chiqilganligin tasdiqlash va Foydalanuvchi tomonidan Oferta shartnomasining yangi tahriri to'liq va so'zsiz qabul qilinganligi sifatida hisoblanadi.

2.18. Limitlar - CityPay tomonidan belgilangan va barcha Foydalanuvchilarga bir xil qo'llaniladigan, USDTda ifodalangan operatsiyalar uchun miqdoriy/qiymat chekllovleri:

- (a) bir martalik jo'natma - 3 000 USDT gacha;
- (b) bir martalik olish - 10 000 USDT gacha;
- (c) kunlik umumiy hajm (jo'natish va qabul qilish) - 10 000 USDT gacha;
- (d) oylik umumiy hajm (jo'natish va qabul qilish) - 50 000 USDT gacha;
- (e) 24 soat ichida maksimal 30 ta tranzaksiya.

Agar operatsiya boshqa kripto-aktivda amalga oshirilsa, Limitlarni nazorat qilish maqsadida uning hajmi operatsiya tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan paytda CityPay tomonidan qo'llanilgan bozor kotirovksi bo'yicha USDTga qayta hisoblanadi. Sutka/oy Toshkent vaqt bilan hisoblanadi (UTC+5).

2.19. Yuborishning minimal summasi - kripto-aktivni "yuborish" bo'yicha Topshiriqnomaning yo'l qo'yiladigan minimal miqdori, 10 USDT ga teng yoki operatsiya ro'yxatdan o'tkazilgan paytda CityPay tomonidan foydalaniladigan bozor kotirovksi bo'yicha boshqa kripto-aktivlar bilan operatsiyalar uchun 10 USDT ekvivalentiga teng.

3. SHARTNOMA MAZMUNI

3.1. Xizmatlar tarkibi. Ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha CityPay Foydalanuvchiga Sayt orqali Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlarga nisbatan quyidagi Xizmatlarni taqdim etadi:

- (a) Foydalanuvchining Kripto-aktivlarini kastodial saqlash;
- (b) CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatiladigan manzillar/hamyonlarga Kripto-aktivlarni qabul qilish (kiritish);
- (c) CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatiladigan manzillardan/hamyonlardan ichki manzillarga (CityPay xizmat ko'rsatadigan hamyonlarga) yoki Qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqlardagi tashqi manzillarga Kripto-aktivlarni yuborish (chiqarish/ko'chirish).

3.2. Kastodial model va aktivlarga egalik huquqi. Kastodial saqlash CityPay tomonidan litsenziyaga ega kripto-depozitariy sifatida amalga oshiriladi. Mos keluvchi manzillar/hamyonlarning shaxsiy kalitlari CityPay nazorati ostida bo'ladi. Shu bilan birga:

- (a) Kripto-aktivlarga egalik huquqi har doim Foydalanuvchiga tegishli hisoblanadi;
- (b) Foydalanuvchining Kripto-aktivlari CityPay mulki hisoblanmaydi, CityPayning konkurs massasi tarkibiga kiritilmaydi, uchinchi shaxslarning huquqlari bilan yuklanmaydi hamda CityPay tomonidan (qarz/garov va hokazo) Foydalanuvchining Topshirig'isiz foydalanilmaydi.

3.3. Kripto-aktivlarni qabul qilish (kiritish).

- (a) Kiritish tasdiqlangan tranzaksiyani Qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqda Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetida ko'rsatilgan manzil/hamyoniga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

(b) Tarmoq tomonidan minimal miqdorda tasdiqlash va/yoki tarmoq tomonidan ko'zda tutilgan atributlarni (masalan, memo/teg) ko'rsatish talab qilinishi mumkin.

(c) O'tkazilgan mablag' Shaxsiy kabinetda 3.3(b)-band talablari bajarilgandan keyin aks ettiriladi. Tarmoq/aktiv/atributlar bo'yicha yo'riqnomaga riosa qilmaslik (masalan, noto'g'ri tarmoq, tegning ko'rsatilmaganligi va h.k.) mablag'ning tushmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday mablag'larga kirish imkonini yo'qotish xavfi Foydalanuvchining zimmasida bo'ladi.

3.4. Kripto-aktivlarni jo'natish (chiqarish/o'tkazish).

(a) Kripto-aktivlarni jo'natish Foydalanuvchi topshirig'iga asosan Shaxsiy kabinet orqali, Qo'llab-quvvatlanadigan aktiv/tarmoq, hajm va oluvchining manzilini ko'rsatgan holda amalga oshiriladi.

(b) **Tashqi o'tkazmalar.** Bunda Tarmoq yig'imi (network fee) qo'llaniladi, uning miqdori tegishli tarmoq qoidalariga muvofiq belgilanadi va Foydalanuvchi Topshiriqni tasdiqlashidan oldin unda aks ettiriladi. **CityPay ko'rsatilgan Tarmoq yig'imi summasini Foydalanuvchidan ushlab qoladi va uni tarmoqqa to'laydi;**

(c) **Ichki tizimdagagi o'tkazmalar.** CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatiladigan hamyonlar o'rtasidagi o'tkazmalar CityPay Komissiya to'lovi undirilmasdan va Tarmoq yig'imsiz (off-chain/ichki kliring) amalga oshiriladi.

(d) Tarmoqqa yuborilgan tranzaksiyalar qaytarib bo'lmaydigan va bekor qilib bo'lmaydigan hisoblanadi. CityPay tranzaksiyani tarmoqqa yuborgandan so'ng uni bekor qila olmaydi va o'zgartira olmaydi. Manzil/tarmoq/parametr xatolari xavfi Foydalanuvchining zimmasida bo'ladi.

3.5. Qo'llab-quvvatlanadigan aktivlar va tarmoqlar. Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlar va tarmoqlar ro'yxati 2-llovada keltirilgan bo'lib, u CityPay tomonidan qonunchilik, vakolatli organlar hujjatlari, xavfsizlik va komplaens talablari, shuningdek, texnologik maqsadga muvofiqlikka asoslanib o'zgartirilishi mumkin. Maxfiy (privacy) tokenlar qo'llab-quvvatlanmaydi.

3.6. Manzillar va rekvizitlar. Foydalanuvchi har bir ularga ko'rsatilayotgan oluvchi manzili (tashqi yoki ichki) tegishli Qo'llab-quvvatlanadigan aktivni tegishli tarmoqda qabul qilish uchun mo'ljallangan va qonuniy egasi nazoratida ekanligini tasdiqlaydi. CityPay manzillar tegishliligi/to'g'rilibini tekshirish majburiyatiga ega emas va Foydalanuvchi xatolarining oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

3.7. Axborot ta'minoti. Kiritish/chiqarish/o'tkazmalar holati haqidagi ma'lumotlar Shaxsiy kabinet interfeysida aks ettiriladi.

3.8. Amalga oshirish muddatlari. CityPay kiritish (qabul qilish), yuborish (chiqarish/o'tkazish) va ichki tizimdagagi o'tkazmalarni mablag' tegishli manzilga to'g'ri topshirilgan/pul kelib tushgan vaqtidan boshlab **24 (yigirma to'rt) soat muddat** ichida bajaradi. Haqiqiy muddatlar tarmoq va xavfsizlik/komplayens tekshiruvlariga bog'liq va farq qilishi mumkin. Tashqi o'tkazmalarda tranzaksiyaning blokcheynga kiritilish vaqt tarmoq qoidalariga muvofiq belgilanadi.

3.9. Bajarishni rad etish/to'xtatib turish. CityPay quyidagi hollarda: ushbu Oferta shartnomasida va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi choralar (AML), terrorizmni moliyalashtirishga qarshi choralar (CFT), ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar (FP), sanksiyaviy komplayens, vakolatli organlar ko'rsatmalari, shuningdek asosli texnik xavflar/hodisalar yoki Foydalanuvchi tomonidan qonun va/yoki Oferta shartlari buzilishiga oid gumanlar mavjud bo'lgan hollarda Topshiriqni bajarishni rad etish yoki operatsiyani to'xtatish/ muzlatish /bekor qilishga va hisobni bloklash haqlidir.

4. XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

4. XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

4.1. Ro'yxatdan o'tish va kirish. Xizmatlarga kirish Oferta shartnomasini ro'yxatdan o'tkazib va qabul qilgandan keyin Saytdagi Shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi. Akseptdan oldin operatsiyalarni amalga oshirish funksiyasiga kirib bo'lmaydi.

4.2. Identifikatsiya (KYC) va komplayens.

4.2.1. Xizmat boshlanishidan oldin va xizmat ko'rsatish davomida CityPay Foydalanuvchidan quyidagi ma'lumotlar va hujjatlarni talab qilishga haqlidir: (i) shaxsini aniqlash; (ii) yashash manzili va aloqa ma'lumotlarini tasdiqlash; (iii) aktivlar/mablag'larning kelib chiqish manbasini tekshirish; (iv) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi choralar (AML), terrorizmni moliyalashtirishga qarshi choralar (CFT), ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar (FP), shuningdek, sanksiyaviy komplayens choralarini amalga oshirish.

4.2.2. Talab qilingan ma'lumotlarni taqdim etmaslik, noto'g'ri ma'lumot berish yoki tekshiruvlardan o'tishdan bosh tortish xizmat ko'rsatishdan bosh tortish, operatsiyalarni to'xtatish va/yoki Sharhnomani bekor qilishga olib keladi.

4.2.3. CityPay O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki qoidalarda belgilangan hajmda operatsiyalarni uzlusiz monitoring qilish va qayta identifikatsiya va tasdiqlash o'tkazishga haqlidir.

4.3. Avtorizatsiya vositalari va xavfsizlik.

4.3.1. Foydalanuvchi login/parol maxfiyligi va kirish amalga oshirilayotgan qurilmalar/brauzer himoyasini ta'minlashi shart.

4.3.2. To'g'ri avtorizatsiya vositalaridan foydalanib amalga oshirilgan harakatlar, agar boshqacha isbot qilinmagan bo'lsa, Foydalanuvchi tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi.

4.3.3. Avtorizatsiya vositalarining buzilishi yoki yo'qotilishi haqida Foydalanuvchi CityPayni Saytda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali darhol xabardor qilishi shart.

4.4. Topshiriqlarni shakllantirish.

4.4.1. Topshiriq Shaxsiy kabinetda rasmiylashtiriladi va majburiy parametrlarni (aktiv, tarmoq, hajm, oluvchi/jo'natuvchi manzili, zarurat bo'lganda — memo/teg/boshqa tarmoq atributlari) o'z ichiga olishi kerak.

4.4.2. Topshiriq tasdiqlanishidan oldin Foydalanuvchiga tegishli summalar, jumladan tashqi o'tkazmalar uchun mo'ljallangan Tarmoq yig'imi ko'rsatiladi.

4.4.3. Tasdiqlangan Topshiriq bajarishga yuboriladi va 4.10-band asoslari bo'yicha to'xtatilishi/yoki rad etilishi mumkin.

4.5. Kripto-aktivlarni qabul qilish (kiritish).

4.5.1. Kiritish uchun Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan manzil/hamyondan foydalaniladi. Foydalanuvchi amaldagi manzil va to'g'ri tarmoqdan foydalanishi shart.

4.5.2. O'tkazish uchun, agar buni tegishli tarmoq talab qilsa, tarmoq tasdiqlari va/yoki majburiy atributlarning (memo/teg) minimal darajada kerakli miqdori qo'llanilishi mumkin.

4.5.3. Noto'g'ri tarmoq/aktivga, eskirgan manzilga, majburiy memo/tegsiz yuborilgan o'tkazmalar qabul qilinmasligi mumkin; bunday oqibatlar xavfi uchun Foydalanuvchi javobgar bo'ladi.

4.5.4. Qabul qilishda limitdan oshish. Agar kiruvchi tranzaksiya bir martalik olish limitidan - 10 000 USDT dan oshsa (yoki kunlik/oylik limitdan oshib ketsa), summa hisobga olinmaydi. CityPay quyidagi

huquqlarga ega: (a) aktivlarni jo'natuvchiga (agar texnik imkoniyat bo'lsa) tarmoq to'lovi va muqarrar xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarish; yoki (b) tekshiruvlar yakunlanguniga/hujjatlar olinguniga qadar aktivlarni vaqtincha muzlatish; (c) 4.16-bandni yuqori/taqiqlangan xavf belgilarida qo'llash. Boshqa aktivlar bo'yicha operatsiyalar uchun ortiqcha summa operatsiya ro'yxatdan o'tkazilgan paytdagi USDTdagi ekvivalent bo'yicha aniqlanadi.

4.6. Kripto-aktivlarni yuborish (chiqarish/o'tkazish).

4.6.1. Ichki tizimdagи o'tkazmalar (CityPay infratuzilmasida xizmat ko'rsatiladigan hamyonlar orasida) CityPay Komissiyasiz va Tarmoq yig'imisiz (off-chain kliring) amalga oshiriladi.

4.6.2. Tashqi o'tkazmalar (CityPay infratuzilmasidan tashqaridagi manzillarga) tegishli tarmoq qoidalariga muvofiq belgilangan Tarmoq yig'imini talab qiladi; Tarmoq yig'imi miqdori Topshiriq tasdiqlanishidan oldin ko'rsatiladi. **CityPay Foydalanuvchidan ko'rsatilgan Tarmoq yig'imini ushlab qoladi va uni tarmoq validatorlari/maynerlariga o'tkazadi;**

4.6.3. Tranzaksiya tarmoqqa chiqarilgandan keyin operatsiyani qaytarib va bekor qilib bo'lmaydi. CityPay on-chain tranzaksiyalarni bekor qilish/yoki o'zgartirish majburiyatiga ega emas.

4.6.4. Jo'natishda limitlardan oshib ketish. Bir martalik/sutkalik/oylik limitdan yoki operatsiyalar soni bo'yicha limitdan ortiq bo'lgan topshiriqlar qabul qilinmaydi yoki to'xtatib qo'yiladi (2.18-bandga qarang). Boshqa aktivlar bo'yicha operatsiyalar uchun limitlarga rioya qilish operatsiya ro'yxatdan o'tkazilgan paytdagi USDT ekvivalenti bo'yicha baholanadi.

4.6.5. Jo'natishning eng kam summasi. Summasi jo'natishning eng kam summasidan kam bo'lgan "jo'natish" topshiriqnomalari qabul qilinmaydi yoki rad etiladi. Boshqa kripto-aktivlar bo'yicha operatsiyalar uchun jo'natishning minimal summasiga rioya qilish operatsiyani ro'yxatdan o'tkazish paytida USDT ekvivalentida baholanadi.

4.7. Tranzaksiyalarga qo'yiladigan texnik talablar.

4.7.1. CityPay qo'llab-quvvatlanmaydigan aktivlar/tarmoqlar bilan tranzaksiyalarni qabul qilmaydi va qayta ishlanmaydi.

4.7.2. CityPay tarmoqning texnik talablariga mos kelmaydigan tranzaksiyalarni (jumladan majburiy memo/tegning yo'qligi, noto'g'ri manzil formati va boshqalar) rad etishga haqlidir.

4.8. Holatlarni aks ettirish.

Operatsiyalar holati («qabul qilindi», «qayta ishlanmoqda», «bajarildi», «rad etildi», «to'xtatildi») **faqat** Shaxsiy kabinet interfeysida aks ettiriladi.

4.9. Amalga oshirish muddatlari.

4.9.1. CityPay kiritish (qabul qilish), yuborish (chiqarish/o'tkazish) va ichki tizimdagи o'tkazmalarni aniq Topshiriq va/yoki mablag'lar tegishli manzilga tushgan vaqtdan boshlab **24 (yigirma to'rt) soat muddat** ichida bajaradi.

4.9.2. Tashqi o'tkazmalarda tranzaksiyalarning blokcheynga kiritilish vaqtini tarmoq qoidalari bilan belgilanadi va uning bandligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, CityPay yuborish haqidagi Topshiriqni 4.9.1-bandda ko'rsatilgan muddatda shakllantiradi va tarmoqqa uzatadi. Muddatlar taxminiy tavsifga ega bo'lib, tarmoq va tekshiruvlarga bog'liq.

4.10. To'xtatish/rad etish/muzlatish/bekor qilish va aktivlarni muzlatish asoslari.

CityPay quyidagi hollarda Topshiriqlarni bajarishni to'xtatib turish/muzlatish yoki rad etish, Shaxsiy kabinet va hisobga kirishni bloklash, hamyon/hisob operatsiyalarini to'xtatib turish va Kripto-aktivlarni muzlatish huquqiga ega:

- (a) Foydalanuvchi tomonidan noto'g'ri/to'liq bo'Imagan axborot taqdim etilgani va Foydalanuvchi tomonidan identifikatsiya/tasdiqlash tartib-qoidalariga rioya qilinmagani aniqlangan bo'lsa;
- (b) bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va/yoki vakolatli organlarning ko'rsatmalarida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa;
- (c) Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazarat qoidalariga (AML/CFT/FP), jumladan, sanksiyalar skriningi va operatsiyalar monitoringiga muvofiq talab qilinadi;
- (d) Foydalanuvchi, uning operatsiyalari/kontragentlari terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati bilan bog'liq bo'lsa, bunday holda CityPay aktivlarni qonunda belgilangan tartibda va muddatga muzlatadi;
- (e) daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, shuningdek, qimor o'yinlari bilan bog'liq shubhali operatsiyalar/bitimlar aniqlansa - choralar CityPay ichki hujjatlari bo'yicha ham qo'llaniladi;
- (f) texnik xavflar/hodisalar, avtorizatsiya vositalarini obro'sizlantirish belgilari, tarmoq/llovaning texnik talablariga nomuvofiqlik, limitlardan oshib ketish yoki yetarli qoldiq mavjud emasligi;
- (g) Foydalanuvchi CityPay kompaniyasining ushbu Ofertaning 4.2.1 va 4.2.4-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarni/ma'lumotlarni taqdim etish talabini bajarmagan.
- (h) Foydalanuvchining tarmoq/faollik/manzilni noto'g'ri ko'rsatishi yoki majburiy mem/tegning mavjud emasligi;
- (i) Ofertada va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.
- (j) "Jo'natish" topshirig'i summasi jo'natishning minimal summasidan kam.

To'xtatib turish/muzlatish to'g'risida xabardor qilish, agar bunday xabardor qilish qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va hajmda amalga oshiriladi.

To'xtatish/rad etish haqidagi ma'lumot Shaxsiy kabinetda aks ettiriladi.

4.11. Rekvizitlar uchun javobgarlik. Foydalanuvchi ko'rsatilgan manzillar, tarmoq, aktiv, memo/teg va boshqa parametrlarning to'g'riliqi uchun javobgar bo'ladi. CityPay qabul qilib oluvchi manzillari tegishlilagini tekshirish majburiyatiga ega emas va Foydalanuvchi xatolarining oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

4.12. Aktivlar/tarmoqlar va funksiyalar ro'yxatining o'zgaruvchanligi. CityPay xavfsizlik, komplayens, regulyator talablari va/yoki texnologik maqsadga muvofiqlik asosida Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlar/tarmoqlar ro'yxatini o'zgartirish, ayrim aktivlarni kiritish/chiqarilishini to'xtatish/yoki qayta tiklashga haqlidir.

4.13. Kripto-aktivlarni qo'shish va olib tashlash

4.13.1 Umumiy qoidalar.

CityPay qo'llab-quvvatlanadigan kripto-aktivlar va tarmoqlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hujjatlari, shuningdek, ichki xavfsizlik va komplayens siyosatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

Kripto-aktivlar/tarmoqlarni qo'shish (listing) va chiqarib tashlash (delisting) Foydalanuvchilarning alohida roziligesiz amalga oshiriladi va 12.1 (c) -band ma'nosida Oferta shartlarining muhim bo'Imagan o'zgarishlari hisoblanadi.

4.13.2. Kripto-aktivlarni qo'shish (listing).

a) Kripto aktiv yoki tarmoqni ro'yxatga olish to'g'risidagi qaror CityPay tomonidan quyidagilarni baholash asosida qabul qilinadi:

- qonunchilik va NAPP talablariga muvofiqligi;
- tarmoq barqarorligi va texnik ishonchliligi;
- likvidlik va barqaror infratuzilma;
- AML/CFT/FP xavf darajasi va sanksiyalarga muvofiqligi;
- CityPay platformasiga texnik integratsiya.

(b) Qaror qabul qilingandan so'ng, CityPay 2-ilovani yangilaydi, veb-saytda va Shaxsiy hisobda xabarnoma e'lon qiladi va yangi kriptoaktiv/tarmoqni qo'llab-quvvatlash boshlanish sanasini ko'rsatadi.

(c) E'lon qilingan paytdan boshlab, Foydalanuvchi ushbu Oferta shartlariga muvofiq yangi kriptoaktiv/tarmoqdan foydalanishi mumkin.

4.13.3. Kripto-aktivlarni chiqarib tashlash (delisting).

(a) Kripto-aktivlarni chiqarib tashlash (delisting) kripto-aktiv/tarmoqni texnik va operatsion qo'llab-quvvatlashni to'xtatishni anglatadi.

(b) Kripto-aktivlarni chiqarib tashlash (delisting) uchun asoslar:

- LAOG yoki boshqa davlat organlarining ko'rsatmalari;
- huquqiy/sanksiyaviy talablarining buzilishi yoki komplayens-xavflarning paydo bo'lishi;
- tarmoqdagi jiddiy texnik nosozliklar, validatorlar tomonidan qo'llab-quvvatlashning to'xtatilishi;
- likvidlikni yo'qotish yoki xavfsiz xizmat ko'rsatishning obyektiv imkoni yo'qligi;
- ichki xavfsizlik yoki operatsion samaradorlik sabablariga ko'ra CityPay tomonidan qo'llab-quvvatlashni to'xtatish to'g'risidagi qaror.

(c) Kripto-aktivlarni chiqarib tashlashda (delistingda) CityPay qo'llab-quvvatlash to'xtatilishidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin Saytdagi va/yoki Shaxsiy kabinetdagi Foydalanuvchilarni kripto-aktivni kiritish/chiqarish mumkin bo'lmay qoladigan sanani ko'rsatgan holda xabardor qiladi.

(d) Xabardor qilish muddati davomida Foydalanuvchi tegishli kripto-aktivlarni tashqi manzilga o'tkazish huquqiga ega.

(e) Ko'rsatilgan muddat tugagach, kripto-aktiv operatsiyalari to'xtatiladi. Chiqarishning texnik imkonи bo'lmaganda yoki qonuniy cheklovlар mavjud bo'lganda, aktivlar vakolatli organlarning ko'rsatmalarini olgunga qadar muzlatiladi.

(f) Favqulodda holatlarda - sanksiyalar, uzilishlar, tarmoq obro'sizlanishi, regulyatorlarning ko'rsatmalari - CityPay kripto-aktivlarni oldindan ogohlantirmsandan, keyinchalik ma'lumotlarni Saytda va/yoki Shaxsiy kabinetda joylashtirgan holda darhol chiqarib tashlash (delisting) huquqiga ega.

4.13.4. Yuridik ogibatlar.

(a) Mazkur bandga muvofiq amalga oshirilgan kripto-aktivlarni chiqarib tashlash (delisting) CityPay majburiyatlarini buzish hisoblanmaydi.

(b) Kripto-aktivlarni chiqarib tashlash (delisting) sanasidan keyin kripto-aktiv operatsiyalari mavjud emas. CityPay tegishli qoldiglarning hisobini ular qonuniy ravishda chiqarilgunga yoki qonunda belgilangan tartibda tasarruf etilgunga qadar saqlaydi.

(c) Kripto-aktivlarni chiqarib tashlashda (delistingda) aktivlarni qaytarish yoki muzlatib qo'yish 4.16-bandga va vakolatli organlarning ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi.

(d) CityPay istisno qilingan kripto-aktivlarni avtomatik ravishda boshqa aktivlarga yoki barqaror tokenlarga ayirboshlashni amalga oshirmaydi va ayirboshlash xizmatlarini ko'rsatmaydi, agar qonun yoki tartibga soluvchi tomonidan boshqacha talab qilinmasa.

4.13.5. Qonunchilikning ustuvorligi.

Qo'shish (listing) va chiqarish (delisting) to'g'risidagi barcha qarorlar qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq qabul qilinadi va bajariladi.

4.14 Xizmat va qo'llab-quvvatlash. Murojaatlar Saytda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali qabul qilinadi. Javob berish muddati so'rov murakkabligiga va operatsion rejimiga bog'liq bo'ladi.

4.15. Operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirish va saqlash. Operatsiyalar haqidagi yozuvlari va loginlashtirish ma'lumotlari (sana/vaqt, IP/identifikatorlar, Topshiriq parametrлari) CityPay tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki qoidalarda belgilangan hajm va muddatlarda (kamida 5 yil yoki qonun bo'yicha boshqa muddatda) saqlanadi.

4.16. AML/CFT/FP ning maxsus qoidalari: aktivlarni qaytarish/qaytarmaslik va muzlatish.

4.16.1. Manbalar/qabul qiluvchilar tasnifi. Operatsiyalarni kuzatishda CityPay ichki algoritmlar va tashqi blokcheyn tahlili provayderlaridan foydalanadi. Jumladan, quyidagi toifalar ajratib ko'rsatiladi:

- yuqori xavfli (Illicit Activity): dark-marketlar, mikserlar, firibgarlik/ fishing sxemalari va shunga o'xshash obfuscatsiya manbalari;

- taqiqlangan: sanksiya manzillari/mohiyatlari, giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy qimor o'yinlari, terrorizmni moliyalashtirish, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik materiallari (CSAM), KXDR va qonun bilan to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan boshqa toifalar (Obfuscating & Misc., Gambling, Sanctioned, TF & CSAM, DPRK va boshqalar).

4.16.2. Kiruvchi operatsiyalar (olish).

(a) Agar tranzaksiya yuqori xavfli manbadan (Illicit Activity) kelib tushgan bo'lsa, CityPay aktivlarni kirim qilmaslik, muzlatib qo'yish va ularni jo'natuvchiga (agar texnik imkoniyat bo'lsa) tarmoq yig'imi va boshqa muqarrar xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarish yoki qaytarmaslik huquqiga ega.

(b) Agar tranzaksiya taqilangan manbadan (sanksiyalar, giyohvand moddalar, noqonuniy qimor o'yinlari, TF, CSAM, KXDR va boshqalar) kelib tushgan bo'lsa, aktivlar muzlatiladi va qaytarilmaydi; CityPay qonunchilik talablari va vakolatli organlarning ko'rsatmalariga muvofiq ishlaydi.

4.16.3. Chiquvchi operatsiyalar (jo'natish).

(a) Agar Topshiriq yuqori xavfli manbaga (Illicit Activity) yo'naltirilgan bo'lsa, CityPay uni bajarmaslik, muzlatib qo'yish va tekshiruvlar yakunlanmaguncha operatsiyalarni to'xtatib turish orqali Aktivlarni Foydalanuvchiga qaytarish yoki qaytarmaslik huquqiga ega (tarmoq to'lovi/muqarrar xarajatlar chegirilgan holda).

(b) Agar topshiriqnoma taqilangan manbaga yo'naltirilgan bo'lsa, jo'natish uchun mo'ljallangan aktivlar muzlatiladi va qaytarilmaydi, operatsiya bajarilmaydi; keyingi harakatlar qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.16.4. Hisobni bloklash va aktivlarni muzlatish. 4.16.2-4.16.3-bandlarda ko'rsatilgan alomatlar aniqlanganda, shuningdek, talab qilinadigan hujjatlar/tushuntirishlar taqdim etilmaganda, CityPay Shaxsiy kabinetga kirishni (to'liq yoki qisman) bloklash va tekshiruvlar/ko'rsatmalar olingunga qadar aktivlarni muzlatish huquqiga ega. Agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, Foydalanuvchini oldindan xabardor qilish talab qilinmaydi.

4.16.5. Qonun ustuvorligi. Aktivlarni qaytarish/qaytarmaslik, shuningdek, ularni muzlatish/xatlash qonun hujjatlariga va vakolatli organlarning ko'rsatmalariga qat'iy muvofiq amalga oshiriladi.

5. KOMISSIYALAR VA YIG'IMLAR

5.1. Umumiy qoida.

Ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha Tranzaksiyalarni amalga oshirishda **faqat Tarmoq yig'imi (network fee)** — tegishli blokcheyn tarmog'i validatorlari/maynerlariga to'lanadigan haq qo'llaniladi. Tarmoq yig'imi miqdori tarmoq qoidalari bilan belgilanadi va **CityPay tomonidan belgilanmaydi**.

CityPay Tarmoq yig'imi Foydalanuvchidan ushlab qoladi va uni tegishli tarmoqqa o'tkazadi.

5.2. Ichki tizimdagisi o'tkazmalar.

CityPay infratuzilmasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hamyonlar o'rtasidagi Kripto-aktivlar o'tkazmalarini **CityPay Komissiyasini undirmsadan va Tarmoq yig'imsiz** (ichki kliring) amalga oshiriladi.

5.3. Kripto-aktivlarni qabul qilish (kiritish).

CityPay tomonidan xizmat ko'rsatiladigan manzil/hamyonlarga kelib tushadigan kiruvchi o'tkazmalar **CityPay komissiyasiz** amalga oshiriladi. Agar bu narsa tarmoq qoidalari ko'zda tutilgan bo'lsa, kiruvchi tranzaksiyani shakllantirishdagi Tarmoq yig'imi jo'natuvchi (tashqi manzil) to'laydi.

5.4. Tashqi manzilga yuborish (tashqi o'tkazmalar).

(a) Tashqi o'tkazmalarga Tarmoq yig'imi qo'llaniladi, uning hajmi tarmoq yuklamasi va tranzaksiyalarni blok/slotga kiritish qoidalari qarab dinamik tarzda o'zgaradi; CityPay ushbu yig'imi nazorat qilmaydi va belgilamaydi.

(b) Tarmoq yig'imi qanday usulda ushlab qolinishi (yuborilayotgan summadan yoki tarmoqning bazaviy tokenidan) tegishli tarmoq qoidalari bilan belgilanadi va Foydalanuvchiga Topshiriq tasdiqlanishidan oldin ko'rsatiladi.

(c) **Tashqi o'tkazmalar uchun CityPay komissiyasi undirilmaydi.**

5.5. Tasdiqlanishgacha bo'lgan shaffoflik.

Topshiriq tasdiqlanishidan oldin Shaxsiy kabinetda quyidagilar ko'rsatiladi: Tranzaksiya turi, aktiv/tarmoq, hajmi, oluvchi manzili, Tarmoq yig'imi **bahosi** va yuboriladigan/qabul qilinadigan yakuniy summa. Topshiriqni tasdiqlash Foydalanuvchining ushbu parametrlar bilan roziligin anglatadi.

5.6. Tarmoq yig'imining dinamik xarakteri.

Tasdiqlashgacha ko'rsatilgan Tarmoq yig'imi **bahosi** taxminiy bo'lib, tranzaksiya yuborilgan vaqtida tarmoq parametrlaridagi o'zgarishlar sababli amalda yechib olingan qiymatdan farq qilishi mumkin. Bunday hollarda Tarmoq yig'imi miqdori tarmoq qoidalariaga muvofiq tuzatilishi mumkin.

5.7. Tarmoqning minimal summalarini va yaxlitlash.

Agar tarmoq qoidalari o'tkazma/qoldiqning minimal summalarini (masalan, «dust», rent-exempt va h.k.) nazarda tutadigan bo'lsa, tarmoq chegarasidan past bo'lган Topshiriqlar rad etilishi mumkin. Summalar qiymati tegishli tarmoq/token texnik aniqligi doirasida yaxlitlanishi mumkin.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. CityPay majburiyatları:

- (a) Ofertada ko'zda tutilgan funksionallik doirasida xizmatlarni (kastodial saqlash, qabul qilish, jo'natish/ko'chirish) lozim darajada ko'rsatish;
- (b) tashkiliy va texnik himoya choralarini qo'llash;
- (c) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etish, jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar, shuningdek shaxsiy ma'lumotlar bo'yicha talablar va vakolatli organlar ko'rsatmalariga amal qilish;
- (d) Shaxsiy kabinetda operatsiyalar holati va qo'llangan Tarmoq yig'imi miqdorini aks ettirish;
- (e) ma'lumotlar va hujjatlarni qonun va Oferta shartnomasida belgilangan hajmda va muddatlarda saqlash.

6.2. CityPay huquqlari:

- (a) Foydalanuvchidan ma'lumotlar/hujjatlarni talab qilish, qayta identifikasiya o'tkazish va operatsiyalarni doimiy monitoring qilish;
- (b) servis xizmatining xavfsiz va barqaror ishlashini ta'minlash uchun kerakli bo'lган operatsiyalarning texnik parametrlarini va qayta ishlash rejimlarini o'rnatish va o'zgartirish;
- (c) Oferta shartnomasi va qonunda nazarda tutilgan hollarda (sanksion skrinning, firibgarlik alomatlari, Oferta shartnomasining buzilishi, organlar ko'rsatmalari, texnik hodisalar va boshqalar) Topshiriqlarni to'xtatib turish/rad etish/bekor qilish/muzlatish/, aktivlarni va/yoki Shaxsiy kabinetga kirishni blokash;
- (d) xavfsizlik, komplayens, regulyator talablari yoki texnik xizmat ko'rsatish sababli funksionallik, ayrim aktivlar/tarmoqlarni kiritish/chiqarishni vaqtincha cheklash;

- (e) Oferta shartnomasida ko'rsatilgan asoslarda Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlar/tarmoqlar ro'yxatini (2-sonli llova) o'zgartirish;
- (f) qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda yozishmalarni yuritish va huquqiy ahamiyatga ega xabarlarni elektron shaklda yuborish.

6.3. Foydalanuvchi majburiyatlari:

- (a) ro'yxatdan o'tishda/identifikatsiyada ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish va ularni o'z vaqtida yangilash;
- (b) xizmatlardan shaxsan, o'z nomidan va o'z shaxsiy manfaatlari, Kripto-aktivlarning benefitsiar egasi sifatida foydalanish;
- (c) Oferta shartnomasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga riosa etish, jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar, shuningdek sanksion cheklovлага amal qilish;
- (d) Avtorizatsiya vositalarining maxfiyligi va qurilma/brauzer xavfsizligini ta'minlash; ularning buzilishi haqida CityPayni zudlik bilan xabardor qilish;
- (e) Topshiriqlar parametrlarini (aktiv, tarmoq, manzil, memo/teg va boshqalar) to'g'ri ko'rsatish va ularni tasdiqlashdan oldin tekshirish;
- (f) servis xizmatidan qonun taqiqlagan faoliyat turi, jumladan, noqonuniy tovar/xizmatlar bilan operatsiyalar uchun foydalanmaslik;
- (g) operatsiyalar holatini Shaxsiy kabinetda mustaqil ravishda kuzatish.

6.4. Foydalanuvchi huquqlari:

- (a) Oferta shartnomasi to'liq va so'zsiz qabul qilingandan keyin va tegishli tekshiruvlardan o'tgandan keyin Shaxsiy kabinet orqali xizmatlarga kirish uchun ruxsatnomalar olish;
- (b) texnik talablarga riosa qilgan holda Kripto-aktivlarni qabul qilish/jo'natish uchun Topshiriqlarni shakllantirish;
- (c) Shaxsiy kabinetda operatsiyalar holatini, qo'llangan Tarmoq yig'imi miqdorini va harakatlar jurnalini ko'zdan kechirish;
- (d) Oferta shartnomasida belgilagan tartibda xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha CityPayning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish.

6.5. Rekvizitlar va tasdiqlash uchun javobgarlik.

Avtorizatsiyaning to'g'ri vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan va interfeysda tasdiqlangan barcha harakatlar Foydalanuvchining xatti-harakatlari hisoblanadi. Tarmoqni/manzilni/tegini noto'g'ri ko'rsatish, qo'llab-quvvatlanmaydigan aktivni jo'natish va oncheyn tranzaksiyalarning qaytarilmasligi bilan bog'liq xatarlarni Foydalanuvchi o'zi zimmasiga oladi.

6.6. Xizmatdan foydalanish cheklovları:

- (a) Sayt/API ishiga aralashishga urinishlar, texnik cheklovlarni chetlab o'tish, DDoS, skreyping, revers-injiniiring taqiqlanadi;
- (b) servis xizmatidan qonunni, uchinchi shaxslarning huquqlarini yoki sanksion rejimni bevosita yoki bilvosita buzadigan operatsiyalar uchun foydalanish taqiqlanadi;

(c) uchinchi shaxslarga kirish huquqini berish, akkaunti topshirish va ruxsatsiz kirish xavfini yuzaga keltiruvchi boshqa harakatlar taqiqlanadi.

6.7. Hamkorlik va hujjatlar.

CityPay talabiga ko'ra Foydalanuvchi talab qilingan ma'lumot/hujjatlarni tezkor taqdim etishi shart. Taqdim etmaslik yoki rad etish — operatsiyalarni to'xtatib turish/rad etish va/yoki Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

6.8. Kommunikatsiyalar.

Foydalanuvchi Shaxsiy kabinetdagi kontakt ma'lumotlarini yangilab turishi va u yerda joylashtirilgan ma'lumotni mustaqil tekshirishi shart. CityPay alohida xabarnomalar yuborishga majbur emas; xabarlar faqat qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda yuborilishi mumkin.

6.9. Dalillar.

CityPay elektron jurnallaridan (metama'lumotlar, avtorizatsiya va tasdiqlar loginlari, texnik izlar) tomonlar o'tasida amalga oshirilgan harakatlar faktini isbotlovchi tegishli dalil sifatida, qonun ruxsat bergen doirada, foydalanilishi mumkin.

7. FOYDALANUVCHINING BAYONOTLARI VA KAFOLATLARI

7. FOYDALANUVCHINING BAYONOTLARI VA KAFOLATLARI

Ushbu Oferta shartnomasini qabul qilar ekan, Foydalanuvchi quyidagilarni tasdiqlaydi, bayon qiladi va kafolatlaydi: aksept sanasida va Butun Shartnomaning amal qilish muddati davomida quyidagi holatlar adolatli hisoblanadi:

7.1. Shaxs va huquqiy layoqati.

(a) Foydalanuvchi 18 yoshga to'lgan, to'liq muomala layoqatiga ega va ushbu Shartnomani tuzish hamda bajarishga haqli.

(b) Foydalanuvchi o'z nomidan va o'z manfaatlari darajasida harakat qiladi, Kripto-aktivlarning benefitsiar egasi hisoblanadi va qonuniy asoslarsiz uchinchi shaxs topshirig'i bo'yicha/foydasi doirasida harakat qilmaydi.

(c) Foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Xizmatlardan foydalanish huquqiga ega.

7.2. Ma'lumotlarning ishonchliligi.

(a) Ro'yxatdan o'tish/identifikatsiya qilish jarayonida va xizmat ko'rsatish davomida taqdim etilgan barcha ma'lumotlar va hujjatlar aniq, ishonchli, dolzarb va to'liqdir.

(b) O'zgarishlar yuz berganda Foydalanuvchi kechiktirmasdan ma'lumotlarni yangilaydi.

(c) Kripto-aktivlar/mablag'larning kelib chiqish manbai qonuniy hisoblanadi; aktivlar uchinchi shaxs huquqlari bilan cheklab qo'yilmagan.

7.3. Qonun, sanksiyalar va komplayens choralariga rioya qilish.

(a) Foydalanuvchi milliy/xalqaro sanksiyalar ro'yxatlarida va boshqa cheklovlar reyestrida kiritilmagan hamda xizmat ko'rsatishni imkonsiz qiladigan taqilalar ostida emas.

(b) Foydalanuvchi qonunchilikda taqiqlangan faoliyatlar, jumladan: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni

moliyalashtirish, firibgarlik, eksport nazorati va sanksiya tartibini buzish uchun Xizmatlardan foydalanmaydi.

(c) CityPay talabiga ko'ra, Foydalanuvchi identifikatsiya tartibi (KYC) va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga (AML/CFT/FP) qarshi tekshiruvlar bo'yicha zarur bo'lgan hujjat va ma'lumotlarni taqdim etadi va ularni o'tkazishga ko'maklashadi.

7.4. Rekvizitlar va manzillar.

(a) Foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan har bir manzil va boshqa revkizitlar: (i) tegishli Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktiv va tarmoq uchun mo'ljallangan; (ii) Foydalanuvchiga tegishli va uning nazorati ostida turadi; (iii) Topshiriq tasdiqlanishidan oldin Foydalanuvchi tomonidan tekshirilgan va aniq.

(b) Foydalanuvchi manzil/tarmoq/memo (teg) dagi xatoliklar aktivlarning qaytarilmas yo'qotilishiga olib kelishi mumkinligini anglaydi; bunday oqibatlar xavfi Foydalanuvchining zimmasida bo'ladi.

7.5. Texnologik xavflar va qaytarilmaslik.

(a) Blokcheyn tarmoqlaridagi operatsiyalar qaytarilmas va bekor qilinmaydi. Tezlik/xarajat/imkoniyat tegishli tarmoq qoidalari va ish yuklamasiga bog'liq bo'ladi.

(b) Tashqi o'tkazmalar bo'yicha Tarmoq yig'imi qo'llaniladi, ushbu yig'im CityPay tomonidan belgilanmaydi va dinamik xarakterga ega; yig'imning Topshiriqni tasdiqlashdan oldingi bahosi taxminiy hisoblanadi.

(c) Kripto-aktivlar qiymati o'zgaruvchan. CityPay bozor narxining saqlanishi/barqarorligini kafolatlamaydi.

7.6. Kirish xavfsizligi.

Foydalanuvchi Avtorizatsiya vositalarining maxfiyligini ta'minlaydi, uchinchi shaxslarga foydalanish huquqini bermaydi, qurilma/brauzer xavfsizlik sozlamalaridan ishonchli darajada foydalanadi va buzilish haqida CityPayni kechiktrimasdan xabardor qiladi.

7.7. Kommunikatsiyalar.

Foydalanuvchi Shaxsiy kabinetdagi ma'lumotlar va push-xabarnomalarni mustaqil ravishda kuzatib boradi. Shaxsiy kabinetda joylashtirilgan xabarlar/materiallar joylashtirilganligining obyektiv tasdig'i mavjud bo'lganda Foydalanuvchi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi; qo'shimcha tashqi xabarnomalar talab etilmaydi.

7.8. To'liq tanishib chiqish.

Foydalanuvchi CityPayning Oferta shartnomasi shartlari va Maxfiylik siyosati bilan tanishib chiqqan, ularni tushunadi va qabul qiladi.

7.9. Kafolatlarni buzish.

Ushbu bo'limdagi har qanday bayonot/kafolatning buzilishi Sharhnomaning muhim buzilishi hisoblanadi va CityPayga qonun va Oferta shartnomasi doirasida operatsiyalarni to'xtatish/rad etish, aktivlar/kirishni muzlatib qo'yish, Sharhnomani bir tomonlama bekor qilish hamda zararlarni undirishni talab qilish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar qo'llash huquqini beradi.

8. TOPSHIRIQLARNI BAJARISHNING MUHIM SHARTLARI

8.1. «Kiritish» (hisobga olish) operatsiyalari bo'yicha CityPay majburiyatining bajarilishi.

8.1.1. Kripto-aktivlarni hisobga olish bo'yicha CityPay majburiyati, tegishli tarmoq talablari va ichki xavfsizlik tekshiruvlari, jumladan, zarur bo'lganda: tarmoqning minimal tasdiqlar soni, tanlangan tarmoq/aktiv/memo (teg) to'g'riligini tekshirish hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish (AML/CFT/FP) chora-tadbirlarni o'tkazish bajarilgandan keyin Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetida tushum aks ettirilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

8.1.2. 8.1.1-bandda ko'rsatilgan paytgacha hisobga olish aniqlangan xavflar/xatoliklar bartaraf etilmaguncha yoki Foydalanuvchidan qo'shimcha ma'lumotlar/hujjatlar olinmaguncha vaqtincha to'xtatilishi mumkin.

8.2. Ichki tizimdagи o'tkazmalar bo'yicha CityPay majburiyatining bajarilishi.

8.2.1. CityPay majburiyati ichki reyestrlarda (blokcheyndan tashqarida) bir vaqtida yuboruvchida hisobdan chiqarish va qabul qiluvchining Shaxsiy kabinetida hisobga olish aks ettirilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

8.2.2. Ichki tizimdagи o'tkazmalar bo'yicha CityPay Komissiyasi undirilmaydi, Tarmoq yig'imi qo'llanilmaydi.

8.3. Tashqi o'tkazmalar bo'yicha CityPay majburiyatining bajarilishi.

8.3.1. Tashqi o'tkazma bo'yicha CityPay majburiyati tranzaksiyasi tegishli tarmoqqa uzatilgan (tranzaksiya identifikatori/TxID berilgan va bu voqeа CityPay jurnallarida va Shaxsiy kabinetda qayd etilgan) paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

8.3.2. Shu paytdan boshlab tranzaksiyani tasdiqlash, blokka kiritilish vaqt, protokol shartlari tufayli tranzaksiyaning qayta yuborilishi va boshqa tarmoq holatlari bilan bog'liq barcha xavflar Foydalanuvchiga zimmasiga o'tadi.

8.3.3. Tashqi o'tkazma bo'yicha Tarmoq yig'imi CityPay Foydalanuvchisi tomonidan ushlab qolinadi va bundan keyin tegishli tarmoqqa ushbu Oferta shartnomasining 5-bo'limga belgilangan tartibda to'lanadi; tarmoq dinamikasi sababli amaldagi miqdor oldindan baholanganidan farq qilishi mumkin.

8.4. To'xtatib turish/ijro etishni rad etish asoslari.

Topshiriq quyidagi hollarda to'xtatilishi/rad etilishi, aktivlar esa vaqtincha bloklanishi mumkin:

- (a) Topshiriq tarmoq talablariga mos kelmasa (masalan, tarmoq/aktiv/manzil noto'g'ri ko'rsatilgan yoki memo/teg majburiy bo'lsa-da, biroq ko'rsatilmagan bo'lsa);
- (b) AML/CFT/FP bo'yicha xavflar, sanksiya xavflari yoki yuqori xavfli manbalar bilan aloqadorlik aniqlansa;
- (c) Identifikatsiya, mablag'lar/aktivlar manbasini tekshirish uchun so'ralgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasa yoki yetarli bo'limgan hollarda;
- (d) texnik nosozlik yuzaga kelsa yoki avtorizatsiya vositalarining buzilishi haqida shubha tug'ilgan hollarda;
- (e) vakolatli organ ko'rsatmasi kelib tushsa yoki qonun shuni talab etgan hollarda.

Topshiriqning joriy holati haqidagi ma'lumot Shaxsiy kabinetda aks ettiriladi; alohida xabarnoma/kvitansiyalar yuborilmaydi.

8.5. Qaytarilmaslik va bekor qilib bo'lmaslik.

8.5.1. Blokcheyn tarmoqlaridagi tashqi tranzaksiyalar qaytarilmas va bekor qilib bo'lmaydigan hisoblanadi.

8.5.2. Ichki tizimdagи o'tkazmalar CityPay tomonidan faqat ichki yozuv amalga oshirilishidan oldin bekor qilinishi mumkin; hisobdan chiqarish/qabul qilish aks ettirilgandan keyin bekor qilish mumkin emas, faqat CityPay tomonidan yaqqol texnik xatoni tuzatish maqsadida bekor qilinishi bundan mustasno.

8.6. Xizmatning mavjudligi.

CityPay Sayt va Shaxsiy kabinetdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga intiladi, biroq tashqi infratuzilmaga (aloqa provayderlari/ma'lumot markazlari, blokcheyn protokollari) bog'liqlikni hisobga olgan holda uzlusizlik va xatosiz ishlashni kafolatlamaydi. Texnik ishlар va hodisalar davrida Topshiriqlarni bajarishda vaqtinchalik cheklovlar va kechikishlar yuz berishi mumkin.

8.7. Xabardor qilish tartibi.

Topshiriqlarning holatlari (qabul qilingan, qayta ishlanmoqda, bajarilgan/TxID, rad etilgan, to'xtatilgan) Shaxsiy kabinetda mavjud bo'ladi.

8.8. Qonun va ko'rsatmalar ustuvorligi.

Topshiriq shartlari bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining majburiy talablari/yetkazib berilgan vakolatli organ ko'rsatmalari o'rtasida zidlik yuzaga kelsa, ijro faqat shu qonun/ko'rsatmalar talab qiladigan darajada amalga oshiriladi.

8.9. Ijro muddati.

8.9.1. «Yuborish», «qabul qilish (kiritish)» va «ichki tizimdagи o'tkazma» operatsiyalari bo'yicha Topshiriqlarni bajarishning odatiy muddati — quyidagi hollarda mos ravishda 24 (yigirma to'rt) soatdan kechiktirilmaydi:

- «yuborish» uchun — Topshiriq Foydalanuvchi tomonidan Shaxsiy kabinetda tasdiqlangan paytdan boshlab;
- «kiritish» uchun — tranzaksiya CityPay xizmat ko'rsatadigan manzilga kelib tushgan paytdan, tarmoq talablari va ichki tekshiruvlar bajarilgan hollarda;
- «ichki tizimdagи o'tkazma» uchun — Topshiriq tasdiqlangan paytdan boshlab.

8.9.2. 8.4-bandga muvofiq qonuniy to'xtatib turish davrida (shu jumladan, AML/CFT/FP bo'yicha tekshiruvlar, organlar ko'rsatmalari va qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarni o'z ichiga olgan holda) yuqoridagi muddatning o'tishi to'xtatiladi va asoslar bartaraf etilgandan keyin davom ettiriladi.

8.10. Limitlar va qabul qilish/bajarishni rad etish.

Limitlardan oshib ketishga olib keladigan operatsiyalar **qabul qilinmaydi** yoki **to'xtatib qo'yiladi**. **10 000 USDT** dan yuqori bo'lgan kiruvchi tranzaksiyalar uchun 4.5.4-band va zarur hollarda 4.16-band amal qiladi. Boshqa aktivlar bo'yicha operatsiyalarda limitlarni nazorat qilish operatsiyani ro'yxatdan o'tkazish paytida **USDTdagi ekvivalent** bo'yicha amalga oshiriladi.

9. CHEKLOVLAR VA JAVOBGARLIK

9.1. Umumiy qoida.

Xizmatlar Oferta shartnomasida tasvirlangan funksional imkoniyatlar (kastodial saqlash, qabul qilish, jo'natish/o'tkazish) doirasida «boricha» taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ruxsat etilgan darajada CityPay faqat Foydalanuvchiga o'zining aybli (qasddan yoki qo'pol ehtiyotsizlik) xattiharakatlari/harakatsizligi natijasida yetkazilgan bevosita haqiqiy zararga javobgar bo'ladi. Yo'qotilgan foya, ma'naviy zarar, bilvosita/oaqibatli zararlar va jarima sanksiyalari uchun javobgarlik istisno qilinadi.

9.2. CityPay javobgar bo'lmaydigan holatlar.

CityPay quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi, jumladan:

- (a) Foydalanuvchining xatti-harakatlari/xatolari (noto'g'ri manzil, tarmoq/aktiv tanlovi, majburiy memo/tegning mavjud emasligi, qo'llab-quvvatlanmaydigan aktivni jo'natish, avtorizatsiya vositalarining buzilishi, qurilmalarda zararli dasturiy ta'minotlar va h.k.);
- (b) Blokcheyn tarmoqlarining ishlashi (yuklanish, tarmoq qoidalari va komissiyalarining o'zgarishi, tranzaksiyalarning blokka kiritilishidagi kechikishlar, forklar va protokollarning boshqa xususiyatlari);
- (c) tarmoq yig'imi (network fee) va uning miqdori/usuli: u tegishli tarmoq qoidalari bilan belgilanadi, CityPay tomonidan Foydalanuvchidan ushlab qolinadi va so'ngra CityPay nomidan tarmoqning o'ziga to'lanadi;
- (d) uchinchi shaxslarning tashqi infratuzilmasi (aloqa/ma'lumot markazi provayderlari, tasdiqlovchi servis xizmatlari, KYC/AML tekshiruvlari provayderlari, pochta va SMS operatorlari va boshqalar);
- (e) vakolatli organlarning qonuniy cheklovlarini va talablari, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralar (AML/CFT/FP) tufayli operatsiya to'xtatilgan/rad etilgan/aktivlar vaqtincha muzlatilgan hollarda;
- (f) Sayt/Shaxsiy kabinetning uzlusiz ishlashi, agar tanaffus rejallashtirilgan ishlar, xavfsizlik hodisalari, tashqi infratuzilma ishdan chiqishi yoki 8 va 10-bo'limlarda ko'rsatilgan boshqa holatlar sababli yuzaga kelgan bo'lsa;
- (g) Kripto-aktivlar qiymatining o'zgaruvchanligi va ularning bozor narxi o'zgarishi sababli yuzaga keladigan har qanday zararlar.

9.3. Tranzaksiyalarning qaytarilmasligi.

Blokcheyn tarmoqlaridagi tashqi tranzaksiyalar tarmoqqa uzatilgandan keyin qaytarilmas hisoblanadi. CityPay bunday tranzaksiyani bekor qilish yoki qaytarishga majbur emas va odatda bunday tranzaksiyani amalga oshira olmaydi. Noto'g'ri parametrlar ko'rsatish xavfi Foydalanuvchining zimmasida bo'ladi.

9.4. Javobgarlik chegarasi.

Har bir operatsiya bo'yicha CityPayning umumiy javobgarligi faqat CityPay aybi bilan noqonuniy ravishda hisobdan chiqarilgan mos Kripto-aktiv hajmi yoki Foydalanuvchi tomonidan isbotlangan va CityPayning aybli xatti-harakatlari/harakatsizligi sababi bilan bog'liq bo'lgan bevosita haqiqiy zarar miqdori (qaysi biri kam bo'lsa) bilan chegaralanadi.

9.5. Uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari.

CityPay o'z nazorati ostida bo'Imagan uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari/harakatsizligi (tashqi manzil egalari, tarmoq/aloqa provayderlari, banklar, to'lov tizimlari, verifikatsiya servis xizmatlari va boshqalar), shuningdek, CityPay Topshiriq bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargandan keyin yuzaga keladigan oqibatlar uchun javob bermaydi.

9.6. Bajarish muddatlari.

«Yuborish», «qabul qilish (kiritish)» va «tizim ichidagi o'tkazma» operatsiyalarini bajarish muddati 8.9-bandda belgilangan tartibda 24 (yigirma to'rt) soatdan kechiktirmay amalga oshiriladi. Aynan blokcheyn tarmog'ida (tranzaksiyani tarmoqqa uzatgandan so'ng) tasdiqlanishning kechikishi va/yoki 8.4-band asoslari bo'yicha qonuniy to'xtatib turish CityPayning javobgarligini vujudga keltirmaydi.

9.7. Investitsion/brokerlik/sug'urta shartlari.

CityPay investitsiya, soliq yoki yuridik soha bo'yicha maslahatlar bermaydi; broker/diler/bank hisoblanmaydi; Kripto-aktivlarning hisobga olinishi bank omonati hisoblanmaydi va omonatlarni kafolatlash tizimi bilan qoplanmaydi. Saytdagi har qanday ma'lumot faqat ma'lumotnoma xususiyatiga ega.

9.8. CityPay zararlarini qoplash.

Foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida CityPayga Foydalanuvchi tomonidan qonun va/yoki Oferta shartnomasi shartlari buzilishi oqibatida yuzaga kelgan hujjatlar bilan tasdiqlangan zarar, xarajat va jarimalarni (shu jumladan AML/CFT/FP talablariga rioya qilmaslik, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish, xizmatdan ruxsatsiz foydalanish) qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10. FORS-MAJOR (YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI)

10. FORS-MAJOR (YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI)

10.1. Tushuncha va umumiy qoida.

Tomonlar ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun, agar bunday holatlar akseptdan keyin yuzaga kelgan, Tomonlarning irodasiga bog'liq bo'Imagan va ularning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan (keyingi o'rinnlarda — «**Fors-major**») vaziyatlar sababli kelib chiqqan bo'lsa hamda oqibatlarni minimallashtirish bo'yicha oqilona choralar ko'rilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

10.2. Fors-major holatlar ro'yxati.

Fors-major holatiga, jumladan, quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar; epidemiyalar/pandemiyalar va sog'liqni saqlash organlarining majburiy hujjatlari; urushlar, terrorchilik aktlar, qurolli to'qnashuvlar, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar; davlat organlarining majburiy hujjatlari/qarorlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar (bajarishni noqonuniy yoki amalda imkonsiz qilib qo'yadigan), uzoq davom etadigan avariylar/energiya, aloqa tizimidagi uzilishlar, data-markazlardagi uzilishlar, internet infratuzilmasidagi keng ko'lamli nosozliklar; CityPayga bog'liq bo'Imagan hollarda blokcheyn tarmoqlari tizimli texnik nosozliklari (mempulning ortiqcha yuklanishi, protokolning to'xtashi/nosozligi, forking, «51%+1» hujumlari va boshqalar). Kripto-aktivlarning bozor qiymati o'zgarishi Fors-major hisoblanmaydi.

10.3. Xabardor qilish tartibi.

Fors-major holati yuzaga kelgan Tomon asossiz kechiktirmasdan bunday holatlarning mavjudligi va xususiyatlari, ularning davom etish muddatlari haqida Saytda va/yoki Shaxsiy kabinetda ma'lumot joylashtiradi. Alovida xabar yuborish (e-mail, SMS, push), agar qonun tomonidan boshqa narsa talab qilinmagan bo'lsa, amalga oshirilmaydi.

10.4. Tasdiqlash.

Fors-majorning mavjudligi va davomiyligi tegishli vakolatli organlar (jumladan, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi) hujjatlari va boshqa tegishli dalillar (regulyatorlar/infratuzilma provayderlarining rasmiy bayonotlari, tarmoqlardagi nosozliklar haqidagi ommaviy hisobotlar va h.k.) bilan tasdiqlanishi mumkin.

10.5. Oqibatlar.

Fors-major amal qilgan davr mobaynida ushbu Oferta shartnomasi bo'yicha ta'sirlangan majburiyatlarni bajarish bunday holatlar davom etgan muddatga va oqibatlarni bartaraf etish uchun zarur oqilona vaqtga to'xtatiladi. Bajarish muddatlari shunga mutanosib ravishda uzaytiriladi. Fors-major yuzaga kelishidan oldin vujudga kelgan moliyaviy majburiyatlarni, ularning bajarilishi noqonuniy yoki obyektiv ravishda imkonsiz bo'Imagan hollarda, o'z kuchini saqlab qoladi.

10.6. Mitigatsiya va tiklanish.

Fors-major holatiga tayanayotgan Tomon zararlarni minimallashtirish va majburiyatlarni tiklash bo'yicha oqilona choralar ko'radi, Fors-major holati tugaganidan so'ng esa Saytda/Shaxsiy kabinetda majburiyatlar qayta tiklangani haqida ma'lumot joylashtiradi.

10.7. Uzoq davom etadigan Fors-major holati.

Agar Fors-major holati ketma-ket 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq davom etsa, bu haqda tegishli ma'lumotni Saytda va/yoki Shaxsiy kabinetda joylashtirgan holda, Tomonlarning har biri Sharhnomani bir tomonlama tartibda jarimalarsiz bekor qilishga haqli. Bunda CityPay qonunda va texnik jihatdan mumkin bo'lgan doirada, qonun va vakolatli organlar ko'rsatmalariga zid bo'Imagan tarzda, Foydalanuvchiga tegishli Kripto-aktivlarni qaytarish bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalarni yakunlaydi.

10.8. Majburiy normalar ustuvorligi va vaqt.

Ushbu bo'limdagi hech narsa CityPayning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va vakolatli organlar ko'rsatmalaridan kelib chiqadigan majburiy talablar bajarilishini cheklamaydi. Ushbu bo'limda ko'rsatilgan muddatlar boshqa tartib bevosita belgilanmagan bo'lsa, Toshkent vaqt (UTC+5) bo'yicha hisoblanadi.

11. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

11.1. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslari.

Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini (keyingi o'rnlarda — «ShM») qayta ishlash CityPay tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga oid qonunlariga muvofiq, quyidagi asoslarda qayta ishlanadi:

- (a) ushbu Oferta shartnomasini bajarish — Shaxsiy kabinetni yaratish va yuritish, Kripto-aktivlarni qabul qilish va yuborish, Shaxsiy kabinetda operatsiyalar holatini aks ettirish;
- (b) qonun talablarini bajarish — identifikatsiya (KYC), AML/CFT/FP va sanksiyalar bo'yicha komplayens nazorati, hujjatlar va loglarni saqlash, vakolatli organlarning so'rovlariga javob berish.

11.2. Qayta ishlash maqsadlari.

ShM - Shaxsiy ma'lumotlar quyidagi maqsadlarda zarur hajmda qayta ishlanadi:

- (a) Shaxsiy kabinetni ro'yxatdan o'tkazish, autentifikatsiya qilish va xizmat ko'rsatish;
- (b) Topshiriqlarni bajarish (Kripto-aktivlarni qabul qilish/jo'natish), Shaxsiy kabinetda operatsiyalar holatini aks ettirish;
- (c) identifikatsiya/verifikatsiya (KYC) o'tkazish, shu jumladan hujjatlar/shaxsni tekshirish, sanksion va boshqa komplayens skrining o'tkazish;
- (d) firibgarlikning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash, hodisalar jurnalini yuritish va incidentlarni tekshirish;
- (e) vakolatli organlarning qonuniy so'rovlarini bajarish;
- (f) anonimlashtirilgan/aggregatsiyalangan ma'lumotlar asosida Saytning xizmat sifati va barqarorligini yaxshilash;

(g) Shaxsiy kabinetga keyingi kirishda push-xabarnoma orqali Oferta shartnomasining yangi tahriri haqida xabardor qilish.

11.3. Shaxsiy ma'lumotlar tarkibi va manbalar.

Quyidagi ma'lumotlar qayta ishlanishi mumkin:

(a) identifikatsion ma'lumotlar: Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, STIR/JSHSHIR, shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari;

(b) aloqa ma'lumotlari: telefon, e-mail, yashash/turish manzili;

(c) operatsiyalar/Topshiriqnomalar bo'yicha ma'lumotlar: aktiv/tarmoq, hajmlar, jo'natuvchi/qabul qilib oluvchi manzillari, TxID/xesh, holatlar, qo'llangan tarmoq yig'implari;

(d) texnik ma'lumotlar: IP-manzil, sana/vaqt, brauzer/qurilma haqidagi ma'lumotlar, cookie/sessiya markerlari, avtorizatsiya va tasdiqlash loglari;

(e) komplayens tekshiruvlari natijalari (sanksion skrining, yuqori xavfli manbalar belgilari) — qonunda nazarda tutilgan hajmda;

(f) yozishmalar va qo'llab-quvvatlash uchun murojaatlar.

Manbalar: Foydalanuvchining o'zi; KYC/AML tekshiruvlari bo'yicha vakolatli provayderlar; qonun doirasidagi ochiq va/yoki davlat reyestrlari; CityPayning texnik tizimlari.

11.4. Uchinchi shaxslarga uzatish.

Shaxsiy ma'lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi, qonun va/yoki ushbu Oferta shartnomasi bilan belgilangan quyidagi hollar bundan mustasno, jumladan:

(a) identifikatsiya/verifikatsiya (KYC), sanksion va komplayens skrining provayderlariga;

(b) IT-provayderlariga (sana-markazlari, bulut xizmatlari, himoya vositalari) — Xizmatlarni ko'rsatish uchun kerakli hajmda;

(c) auditorlar, maslahatchilar va boshqa qayta ishlovchilarga ShM - Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va himoyasi to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha;

(d) vakolatli davlat organlariga — qonunda belgilangan holatlar va tartibda.

ShM - Shaxsiy ma'lumotlarni uzatish maxfiylik va xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

11.5. Lokalizatsiya va transchegaraviy uzatish.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish va saqlash qonunda belgilangan hajmda O'zbekiston Respublikasi hududidagi ma'lumotlar bazalarida amalga oshiriladi. Shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishga faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ruxsat etiladi.

11.6. Saqlash muddatlari.

Shaxsiy ma'lumotlar Shartnoma amal qilish muddati davomida, undan keyin esa qonunda belgilangan muddatlarda va/yoki CityPayning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan davr mobaynida (jumladan AML/CFT/FP talablari va da'vo muddati) saqlanadi. Operatsiyalar bo'yicha hujjatlar va loglarni saqlashning minimal muddati — 5 (besh) yildan kam bo'lmasligi yoki qonunda bo'yicha boshqa muddat bo'lishi mumkin.

11.7. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi.

CityPay ShMni himoya qilish uchun quyidagi kerakli tashkiliy va texnik choralarni qo'llaydi: kirishni chegaralash, shifrlash, jurnal yuritish va hodisalarini monitoring qilish, perimetrnii himoya qilish, zaifliklarni boshqarish, zaxira nusxalash, xodimlarni o'qitish, kirish auditii va boshqalar. Foydalanuvchi 4.3-band va 6-bo'lim talablariga riox qilishi shart.

11.8. Cookie va texnik jihatdan hisobga olish.

Saytga kirish, sozlamalarni saqlash, xavfsizlik va tahlilni anonim shaklda saqlash uchun cookie va o'xhash texnologiyalardan (mahalliy saqlash, web-beaconlar) foydalaniladi. Cookie boshqaruvi — brauzer sozlamalarida amalga oshiriladi.

11.9. Shaxsiy ma'lumotlar subyektining huquqlari va ularni amalga oshirish tartibi.

Foydalanuvchi, qonun hujjatlarida belgilangan hajmda, quyidagilarga haqlidir:

- (a) o'zining Shaxsiy ma'lumotlari va ularni qayta ishlash maqsadlari/asoslari to'g'risida ma'lumot olish;
- (b) Shaxsiy ma'lumotlar to'liq emas yoki noto'g'ri bo'lsa, ularni aniqlashtirishni (yangilash, tuzatish) talab qilish;
- (c) agar ular qonun buzilishi bilan qayta ishlanayotgan bo'lsa, Shaxsiy ma'lumotlarni bloklash/yo'q qilishni talab qilish;
- (d) rozilikni qaytarib olish — rozilik asosida qayta ishlanayotgan maqsadlar bo'yicha (rozilik qaytarib olingunga qadar qayta ishlash qonuniyligiga ta'sir qilmaydi hamda qonun/Shartnoma asosida, shu jumladan AML/CFT/FP bo'yicha majburiy qayta ishlashga tatbiq etilmaydi).

So'rovlari Saytdagi kontaktlar orqali yuboriladi. CityPay ularni qonunda belgilangan muddatlarda, zarur bo'lgan hollarda — ariza bergen shaxs identifikatsiya qilingandan so'ng ko'rib chiqadi.

12. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

12.1. Oferta shartnomasini o'zgartirish tartibi.

(a) CityPay ushbu Oferta shartnomasini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga (qo'shimcha qilish, yangi tahrirda bayon qilish) haqli bo'lib, ushbu o'zgartirishlarni Saytda yangilangan tahrirda e'lon qilish va Foydalanuvchining keyingi safar Shaxsiy kabinetga kirganida push-xabarnoma joylashtirish orqali amalga oshiradi.

(b) **Muhim o'zgarishlar** Foydalanuvchi tomonidan push-xabarnoma/Shaxsiy kabinet interfeysida (chekboks/«Qabul qilish» tugmasi) **qayta tasdiqlanishi** lozim. Qayta tasdiqlashgacha operatsiyalarga kirish cheklanishi mumkin. Muhim o'zgarishlarga quyidagilar kiradi:

- CityPay tomonidan har qanday Komissiya joriy etilishi;
- xizmat predmetini kengaytiruvchi (sotib olish/sotish/ayirboshlash funksiyalarini ular) yoki saqlash/xavf-xatar modelini o'zgartiruvchi o'zgarishlar;
- javobgarlik taqsimoti, bloklash/to'xtatish asoslari, aktivlarni qaytarish muddati va tartibiga oid o'zgarishlar;
- shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun yangi rozilik talab qiladigan o'zgarishlar;
- CityPay tomonidan to'g'ridan-to'g'ri "muhim" deb belgilangan boshqa o'zgarishlar.

(c) Tahririyananishtiruvchi xususiyatga ega o'zgarishlar, shuningdek, **2-sonli ilovadagi** (qo'llab-cuvvatlanadigan aktivlar/tarmoqlar ro'yxati) yangilanishlar va ma'lumotnomma axboroti ahamiyatsiz

o'zgarishlar hisoblanadi hamda Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab (agar boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa) kuchga kiradi.

(d) Agar o'zgarishlar qonun talablari/ vakolatli organlar ko'rsatmalari bilan talab etilgan yoki xavfsizlik/komplayens insidentining oldini olish uchun zarur bo'lsa, CityPay ularni darhol qo'llashga haqli bo'lib, bu haqda bir vaqtning o'zida Saytda axborot joylashtiradi va Shaxsiy kabinetda push-xabarnoma yuboradi.

12.2. O'zgarishlar haqida xabarnoma.

Xabarnoma **faqatgina** Saytda e'lon qilish va Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetga keyingi kirishida **push-xabarnomani** aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Push-xabarnomaning aks ettirilishi jurnallarda qayd etiladi va ma'lumot yetkazilgan deb hisoblanadi. O'zgarishlarni **qabul qilish aksepti** push/Shaxsiy kabinetdagi rozilik tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

12.3. Foydalanuvchining rad etish huquqi.

Foydalanuvchi muhim o'zgarishlarni qabul qilmaslik va xizmatlardan foydalanishni to'xtatishga haqli bo'lib, akkauntni yopishni (12.5-band) boshlashi hamda o'ziga tegishli Kripto-aktivlarni tashqi manzilga o'tkazishi lozim. Muhim o'zgarishlar qabul qilinmaguncha operatsiyalarga kirish cheklanishi mumkin.

12.4. CityPay tashabbusi bilan bekor qilish.

CityPay quyidagi hollarda Foydalanuvchini **oldindan ogohlantirmsdan** (agar qonun bunday ogohlantirishni talab qilmasa) xizmat ko'rsatishni to'xtatishi va/yoki Sharhnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir:

- (a) Foydalanuvchi Oferta sharhnomasi va/yoki qonun talablarini (jumladan AML/CFT/FP va sanksiya cheklovlar) buzsa;
- (b) Foydalanuvchi KYC/davriy verifikatsiyadan o'tmasa/yoki o'zini chetlatса, talab qilingan hujjatlarni taqdim etmasa;
- (c) avtorizatsiya vositalarining buzilganligi, firibgarlik, mikser servis xizmatlari va/yoki boshqa yuqori xavfli manbalardan foydalanish alomatlari aniqlansa;
- (d) vakolatli organlarning majburiy ko'rsatmalar kelib tushsa yoki qonunga muvofiq cheklovlar joriy etilsa;
- (e) xavfsizlik/teknik asoslarning (kritik zaifliklar, insidentlar) obyektiv sabablari mavjud bo'lsa;
- (f) tegishli faoliyat turiga oid litsenziya/huquq tugatilsa/yoki to'xtatilsa yoki Xizmatlar ko'rsatish to'xtatilsa.

12.5. Foydalanuvchi tashabbusi bilan bekor qilish.

Foydalanuvchi istalgan vaqtida Shaxsiy kabinet/xizmat ko'rsatish bo'limi orqali akkauntni yopish uchun ariza topshirib, Sharhnomani bekor qilishga haqlidir. Akkaunt yopilishidan oldin Foydalanuvchi barcha Kripto-aktivlarni tashqi manzilga o'tkazishi shart. Agar qonun/ko'rsatmalar/blokirovka sababli o'tkazish mumkin bo'limasa, CityPay huquqiy cheklovlar doirasida harakat qiladi.

12.6. Bekor qilish oqibatlari.

- (a) Sharhnomalar tugatilgan kundan boshlab Shaxsiy kabinetga kirish cheklanishi mumkin (qonun asosida aktivlarni qaytarish/chiqimlar haqida ko'chirmalarni olish uchun zarur bo'lgan funksiyalar bundan mustasno).

(b) CityPay yangi Topshiriqnomalarni qayta ishlashni to'xtatadi, bundan tashqari Foydalanuvchiga aktivlarni qaytarish va/yoki avval boshlangan jarayonlarni qonun taqiqlamagan hajmda yakunlash uchun zarur operatsiyalar bundan mustasno.

(c) CityPayning hujjatlar/loglarni saqlash, maxfiylikni ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlari qonun va Oferta shartnomasi bilan belgilangan muddatlarda saqlanib qoladi.

(d) Oferta shartnomasining holati o'z tabiatи bo'yicha bekor qilinganidan keyin ham amal qiladigan qoidalari (javobgarlik, nizolarni hal qilish, shaxsiy ma'lumotlar, fors-major holati va boshqalar) o'z kuchini saqlab qoladi.

12.7. Oferta shartnomasini qaytarib olish.

CityPay ushbu ommaviy oferta shartnomasini yangi Foydalanuvchilar uchun istalgan vaqtida qaytarib olishga haqlidir. Oldin tuzilgan Shartnomalarga qaytarib olish ta'sir qilmaydi; ular ushbu bo'lim tartibida bekor qilinmaguncha amal qiladi.

13. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Qo'llaniladigan huquq.

Ushbu Oferta Shartnomasi va Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

13.2. Nizolarni hal qilish.

(a) Tomonlar sudgacha tartibga rioxiga qiladilar: da'vo **elektron shaklda CityPay elektron pochta manziliga** yuboriladi. Da'voni ko'rib chiqish muddati — 30 (o'ttiz) kalendar kuni.

(b) Kelishuvga erishilmagan hollarda, nizolar agar imperativ normalar boshqacha tartibni nazarda tutmagan bo'lsa, CityPay ro'yxatdan o'tgan joydagi vakolatli sudlarda ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.

13.3. Kuchga kirishi va amal qilish muddati.

Oferta shartnomasi Saytda joylashtirilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi va qaytarib olinishi/yangi tahriri bilan almashtirilgunga qadar amal qiladi. CityPay va Foydalanuvchi o'rtasidagi Individual Shartnomasi **faqat** Oferta shartnomasini veb-interfeysda aniq qabul qilish (chek-boks/rozilik tugmasi) orqali tuzilgan hisoblanadi. **Konklyudent harakatlar aksept deb tan olinmaydi.** Shartnomasi 12-bo'limga muvofiq bekor qilinmaguncha muddatsiz amal qiladi.

13.4. Elektron shakl va yuridik ahamiyatga ega xabarlar.

(a) Tomonlar **Saytda/Shaxsiy kabinetda** shakllantirilgan va joylashtirilgan elektron hujjatlar hamda xabarlar, shu jumladan kirishdagi push-xabarnomalarining yuridik kuchini tan oladilar. Xabar Shaxsiy kabinetda joylashtirilishi/aks ettirilishi haqida obyektiv tasdiq (tizim loglari) mavjud bo'lsa, xabar yetkazilgan deb hisoblanadi.

(b) Oferta shartnomasi va elektron hujjatlarda ko'rsatilgan barcha sana/muddatlar, agar boshqacha tartib aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, Toshkent vaqtiga (UTC+5) bo'yicha belgilanadi.,

13.5. Aloqa uchun rekvizitlar.

MCHJ shaklidagi «City Pay Gate» Qo'shma korxonasi (STIR 311606433)

Manzil: 100100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Muhandislar MFY, Shota Rustaveli ko'chasi, 53B-uy

Veb-sayt: <https://citypay.uz>

Elektron pochta manzili: uzsupport@citypay.io

13.6. Tili.

Oferta shartnomasi o'zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etiladi. Tafovutlar yuzaga kelgan hollarda, agar tahrir chop etilishi haqidagi bildirishnomada boshqa narsa ko'rsatilmagan bo'lsa, **rus tilidagi versiya** ustuvor hisoblanadi.

13.7. Shartnomaning butunligi.

Oferta shartnomasi va unga biriktirilgan llovalar/Maxfiylik siyosati Tomonlar o'rtasidagi to'liq kelishuvni tashkil etadi va Oferta shartnomasi mavzusi bo'yicha ilgari tuzilgan barcha kelishuvlarning o'rnini bosadi.

13.8. Ayrim qoidalar haqiqiy emasligi.

Sud tomonidan Oferta shartnomasi qoidalaridan birini haqiqiy emas deb topilishi yoki uni ijro etish mumkin emasligi, bu qolgan qoidalarning haqiqiyligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday qoida qonun ruxsat bergen holda eng yuqori darajada dastlabki maqsadga erishish uchun talqin qilinadi yoki almashtiriladi.

MCHJ shaklidagi «City Pay Gate»

Qo'shma korxonasining 2025 yil 24 fevraldagি

Oferta shartnomasiga

1-Illova

XIZMATLAR

1. Xizmatlarning tavsifi

Ijrochi <https://citypay.uz> Saytidagi Shaxsiy kabinet orqali Foydalanuvchiga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- Qo'llab-quvvatlanadigan Kripto-aktivlar uchun balanslarni hamda operatsiyalar tarixini ko'zdan kechirish orqali (2-Illovdagi ro'yxat) kastodial kripto-hamyon yaratish va yuritish;
- Foydalanuvchi hamyoniga Kripto-aktivlarni **qabul qilish (kiritish)**;

Kripto-aktivlar o'tkazmalari:

- **ichki tizim bo'yicha** (CityPay xizmat ko'rsatadigan hamyonlar o'rtasida) — **CityPay komissiyasisiz va tarmoq yig'imisiz**;
- **tashqi** (platformadan tashqari manzillarga) — **faqat tegishli tarmoq yig'imi** (Polygon, Tron, Ton) **ushlab qolinadi**, u operatsiya tasdiqlanishidan oldin aks ettiriladi.

2. Operatsiyalarni amalga oshirish shartlari (qabul qilish / o'tkazish)

2.1. Kripto-aktivlarni qabul qilish (kiritish)

(a) Foydalanuvchi Shaxsiy kabinetda aktiv va tarmoqni (Polygon, Tron yoki Ton) tanlaydi va ko'rsatilgan rekvizitlardan (manzil/QR; zarur bo'lganda — memo/teg) foydalanadi.

(b) Hisobga o'tkazish tarmoqning **talab etilgan tasdiqlanishlar** va qonunchilikka muvofiq **majburiy tekshiruvlardan keyin** amalga oshiriladi.

(c) Qo'llab-quvvatlanmaydigan tarmoqqa, noto'g'ri manzilga yoki majburiy mem/tegsiz aktivlarni jo'natish qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Ijrochi bunday operatsiyalarni tiklashga majbur emas.

(d) **CityPay tomonidan ko'rib chiqish muddati** — (b)-band shartlari bajarilganidan keyin **24 soatgacha**.

2.2. Ichki tizim bo'yicha o'tkazma

(a) Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan identifikator/manzil bo'yicha amalga oshiriladi.

(b) **CityPay komissiyasi va tarmoq yig'imi undirilmaydi**.

(c) Foydalanuvchi tomonidan **tasdiqlangandan keyin** operatsiyani **bekor qilib bo'lmaydi**.

(d) **CityPayni ko'rib chiqish muddati** — **24 soatgacha**.

2.3. Tashqi o'tkazma (tashqi hamyonga)

- (a) Foydalanuvchi aktivni, tarmoqni va oluvchi manzilini (va zarur bo'lganda, memo/tegni) ko'rsatadi.
- (b) Shaxsiy kabinetda tasdiqlangunga qadar **tarmoq yig'iming taxminiy summasi** va yechib olinadigan yakuniy summa ko'rsatiladi.
- (c) **CityPay Tarmoq yig'imi Foydalanuvchidan ushlab qoladi va tegishli tarmoqqa o'tkazadi.** Yig'im miqdori tarmoq qoidalariga ko'ra belgilanadi va tarmoq yuklanishi sababli oldindan ko'rsatilgan hisob-kitobdan farq qilishi mumkin.
- (d) Tranzaksiya tarmoqqa yuborilgandan keyin operatsiya **qaytarilmaydi**. Tezlik va muvaffaqiyat tarmoq hamda tashqi infratuzilma ishiga bog'liq bo'ladi.
- (e) **CityPay tomonidan ko'rib chiqish muddati — 24 soatgacha** (tarmoq tasdiqlanishining keyingi vaqt CityPayga bog'liq bo'lmaydi).
- (f) **Jo'natishning minimal miqdori.** Minimal jo'natish summasidan kam bo'lgan "jo'natish" operatsiyalari qabul qilinmaydi/rad etiladi. Boshqa kripto-aktivlar uchun yuborish topshirig'ini olish paytida CityPay kotirovkasi bo'yicha 10 USDT ekvivalenti qo'llaniladi.

2.4. Bekor qilish, rad etish, to'xtatib turish

- (a) Tranzaksiya tarmoqqa yuborilguncha Ijrochi qonunda ko'zda tutilgan asoslarda (jumladan, AML/CFT/FP-nazorat va sanksiyaviy komplayens doirasida) va/yoki texnik sabablarga ko'ra operatsiyani bekor qilish/ rad etishga haqlidir.
- (b) Tranzaksiya tarmoqqa yuborilgandan keyin **bekor qilish mumkin emas**; ushlab qolningan tarmoq yig'imi **qaytarilmaydi**.
- (c) Ijrochi qonunda talab etilgan qo'shimcha ma'lumotlar/hujjatlarni so'rashi mumkin, ular taqdim etilmaguncha operatsiya to'xtatib turilishi mumkin.
- (d) Holat haqidagi ma'lumotlar har doim Shaxsiy kabinetda mavjud bo'ladi;

2.5. Amalga oshirish muddatlari

- (a) CityPay tomonidan qayta ishlanadigan barcha operatsiyalar (tarmoq tasdiqlaridan keyin qabul qilish, tarmoqqa uzatilgunga qadar ichki va tashqi o'tkazmalar), **24 soat muddat ichida** amalga oshiriladi.
- (b) Tashqi o'tkazmalar uchun keyingi tarmoq tasdiqlari tegishli tarmoq qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi va qo'shimcha vaqt talab qilishi mumkin, bu CityPayga ta'sir ko'rsatmaydi.

2.6. Tasdiqlash va statuslar – holatlar

- (a) Operatsiyani yuborishdan oldin Foydalanuvchi uni Shaxsiy kabinetda tasdiqlaydi.
- (b) Shaxsiy kabinetda status, summalar va ushlab qolningan tarmoq yig'imi haqida ma'lumotlar mavjud; tashqi o'tkazmalar uchun — tranzaksiya identifikatori (TxID) ko'rsatiladi.

2.7. Qo'shimcha shartlar va xatarlar

- (a) Qo'llab-quvvatlanadigan aktivlar va tarmoqlar 2-llovada ko'rsatilgan. Qo'llab-quvvatlanmaydigan tarmoqlar, noto'g'ri manzillarga yoki tashqi ko'priklar/kontraktlar orqali aktivlar yuborish qo'llab-quvvatlanmaydi va aktivning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.
- (b) Foydalanuvchi rekvizitlarning to'g'rilingini tekshirishga majbur va noto'g'ri ko'rsatilgan manzillar/tarmoqlar/memo (teg) bilan bog'liq xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

(s) Yuqori xavfli/taqiqlangan manbalar/oluvchilar aniqlanganda, 4.16-banddagi Oferta qoidalari qo'llaniladi (qaytarish/qaytarmaslik, aktivlarni muzlatish, shubhali operatsiya haqida xabar berish).

2.8. Operatsiyalar uchun limitlar (hamma uchun bir xil, USDTda).

- (a) bir martalik jo'natma - 3 000 USDT gacha;
- (b) bir martalik olish - 10 000 USDT gacha;
- (c) kunlik umumiy hajm (jo'natish va qabul qilish) - 10 000 USDT gacha;
- (d) oylik umumiy hajm (jo'natish va qabul qilish) - 50 000 USDT gacha;
- (e) 24 soat ichida ko'pi bilan 30 ta operatsiya.
- (f) jo'natishning eng kam summasi - 10 USDT (yoki uning ekvivalenti).

